O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOGLIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
SH. ALIMOV NOMIDAGI
RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN
FTIZIATRIYA VA PULMONOLOGIYA
ILMIY-AMALIY TIBBIYOT MARKAZI

MINITSTRY OF HEALTH OF REPUBLIK
OF UZBEKISTAN
REPUBLICAN SPECIALISED SCIENTIFICAL
AND PRACTICAL MEDICAL CENTER OF
PHTHISIOLOGY AND PULMONOLOGY
NAMED AFTER SH. ALIMOV

# BUYRUQ

**Toshkent shahar**

«1» avgust 2023 г. № 26

## 2023/2024 o'quv yilida klinik ordinatura (rezidentura)ga qabul qilish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-iyundagi "Davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-279-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 15 iyun 2023 yildagi "2023/2024 o'quv yili uchun davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida"gi PF-31-son farmoyishi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2022 yildagi "ochiq muloqoti"da belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PD-364 qarori bilan tasdiqlangan "Yul xarita"ning 40-bandidagi "Klinik ordinaturada mutaxassis tayyorlash tizimini takomillashtirish" bo'yicha belgilangan vazifalar hamda Sog'liqni saqlash vazirligining 2023-yil 26-iyuldagi "2023/2024 o'quv yilida klinik ordinatura (rezidentura)ga qabul qilish to'g'risida"gagi 179-son buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida, shuningdek tibbiyotning ftiziatriya va pulmonologiya yo'nalishlari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlarda tibbiyot kadrlariga bo'lgan ehtiyoj va talabni e'tiborga olib,

BUYURAMAN:

**1.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-iyundagi "Davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-279-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 15 iyun 2023 yildagi "2023/2024 o'quv yili uchun davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida"gi PF-31-son farmoyishi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2022 yildagi "ochiq muloqoti"da belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PD-364 qarori bilan tasdiqlangan "Yul xarita"ning 40-bandidagi "Klinik ordinaturada mutaxassis tayyorlash tizimini takomillashtirish" bo'yicha belgilangan vazifalar hamda Sog'liqni saqlash vazirligining 2023-yil 26-iyuldagi "2023/2024 o'quv yilida klinik ordinatura (rezidentura)ga qabul qilish

to‘g‘risida”gagi 179-son buyrug‘i (keying o‘rinlarda - Buyruq) ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

**2.** Quyidagilar:

Klinik ordinatura (rezidentura) orqali tibbiyot kadrlarni 2023/2024 o‘quv yilida tayyorlash bo‘yicha mutaxassisliklari va ularga muvofiq keluvchi bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari ro‘yxati Buyruqning 1-ilovasiga muvofiq;

2023/2024 o‘quv yilida Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida (keying o‘rinlarda - Markaz) klinik ordinatura (rezidentura) mutaxassisliklarida o‘qitish uchun o‘rinlar soni Buyruqning 2-ilovasiga muvofiq;

2023/2024 o‘quv yilida Markaz uchun klinik ordinatura (rezidentura)ga umumiy va maqsadli qabul rejasi Buyruqning 3-ilovasiga muvofiq

Markazda 2022/2023 o‘quv yilida klinik ordinatura (rezidentura) qabuli test sinovlarini tashkil etish jadvali Buyruqning 4-ilovasiga muvofiq;

2022/2023 o‘quv yilida klinik ordinatura (rezidentura)ga qabul bo‘yicha mas’ul kotib Markazning ftizioortopedi **Tuychiev Nuriddin Nazarovich** Buyruqning 5-ilovasiga muvofiq;

Markaz klinik ordinator (rezident)larini “O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati” fanini o‘qitish uchun tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi va tibbiyot oliy ta’lim muassasalariga biriktirish jadvali Buyruqning 6-ilovasiga muvofiq;

2022/2023 o‘quv yilida klinik ordinatura (rezidentura)ga qabul qilish to‘g‘risidagi hisobot shakllari Buyruqning 7-ilovasiga muvofiq tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

**3.** Markaz ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha direktori o‘rinbosari (I.V.Liverko) va klinik ordinatura (rezidentura)ga qabul bo‘yicha mas’ul kotib (N.N.Tuychiev), Markazning axborot-texnologiyalar bo‘yicha mas’ul (B.N.Ismatov) larga:

2022/2023 o‘quv yili qabulida:

klinik ordinatura mutaxassisliklariga o‘qishga qabul qilish ikki bosqichda amalga oshiriladi. Bunda, Markaz tomonidan tanlangan mutaxassislikka mos ravishda tegishli bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari fanlari negizida kirish sinov imtihonlari amalga oshiriladi, bunda fanlar bo‘yicha kirish imtihonlari **test sinovlari** shaklida o‘tkazilsin;

2023/2024 o‘quv yili qabulida hujjat topshiruvchilarga qulaylik yaratish maqsadidia ro‘yxatdan o‘tish jarayoni bevosita va onlayn tarzda Markazning rasmiy veb-sayti orqali amalga oshirilsin;

klinik ordinatura (rezidentura)ga hujjat topshirish jarayonida bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari bitiruvchilari, ularning yaqin qarindoshlari va boshqa fuqarolarga to‘liq va batafsil tushuntirish ishlarini olib borilsin;

ommaviy va jamoaviy murojaatlarni oldini olish bo‘yicha ta’sirchan choralarni ko‘rishga shaxsan qabul komissiyasi kotibi mas’ul hisoblansin;

klinik ordinatura (rezidentura)ga hujjatlar qabul qilishni ommaviy axborot vositalarida tanlov e’lon qilingan kundan boshlab, joriy yilning 22 avgustigacha (shu kuni xam) amalga oshirish; hujjat topshiruvchilar va ularning ota-onalarini

qiziqtirgan savollarga javob berish uchun tashkilotlarda haftaning dushanba-shanba kunlari soat 9:00-18:00 gacha (1 sentyabrgacha bo‘lgan muddatda) ishlaydigan murojaatlar markazi («Koll markaz») faoliyatini 2023 yilning 25 iyuliga kadar tashkil etilsin;

qabul qilingan hujjatlar to‘g‘risidagi ma’lumotni joriy yilning 24 avgustiga qadar o‘rnatilgan tartibda Sog‘liqni saqlash vazirligining Ilm, fan va ta’lim boshqarmasiga topshirilsin;

Qorakalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar qabul rejasi bo‘yicha berilgan maqsadli o‘rinlarga tanlovni xar bir viloyat uchun alohida tashkil etilsin va ajratilgan o‘rinlarga ushbu hududlarda yashovchi yoki boshqa viloyatlarda ishlash istagini bildirgan shifokorlar qabul qilinsin;

Markaz uchun klinik ordinatura (rezidentura)ga berilgan o‘rinlarga tanlovda ishtirok etuvchi talabgorlarga tanlovning test sinovlarini Buyruqning 4-ilovasida biriktirilgan tartibda tashkil etilsin;

klinik ordinatura (rezidentura)ga qabul qilish rejasi bajarilganligi to‘g‘risidagi xisobotni joriy yilning 4 sentyabr sanasiga qadar vazirlikning Ilm, fan va ta’lim boshqarmasiga takdim etilsin;

klinik ordinatura (rezidentura)ga kirish uchun tanlovda ishtirok etuvchi xar bir shifokorga uning hujjatlari qabul qilinganligi va test sinovlari muddati ko‘rsatilgan ma’lumotnoma qabul komissiyasi tomonidan berilishi ta’minlansin;

2023/2024 o‘quv yilidan boshlab maqsadli va to‘lov-kontrakt asosida o‘qishga kirgan klinik ordinatorlar o‘quv jarayoni birinchi yili Markazda o‘qitiladi, o‘quv davrining bitiruv (ikkinchi) yilining ikkinchi semestrida (o‘quv muddatining oxirgi o‘quv semestrida) xududlardagi Ftiziatriya va pulmonologiya markazlarida o‘quv amaliyot semestri o‘tkazilishi ta’minlansin:

bunda, asosiy ta’lim muassasasi klinik ordinator (rezident)ga rahbarlik qiladigan xodimlari tomonidan mutaxassisning o‘quv reja va o‘quv (modul) dasturida ko‘zda tutilgan barcha auditor (ma’ruza, seminar) soatlari onlayn tarzda o‘tilsin;

yarim yillik va davlat attestatsiyasini dastlabki akkreditatsiya bilan o‘tkazilishi asosiy ta’lim muassasasi tomonidan ta’minlansin;

Davlat attestatsiyasi ijobiy natijalariga asosan klinik ordinator (rezident)larga asosiy ta’lim muassasasi tomonidan o‘rnatilgan tartibda guvoxnoma berilsin;

klinik ordinator (rezident)ning mutaxassislik bo‘yicha o‘quv reja va o‘quv (modul) dasturidagi o‘quv amaliyoti va mustaqil ta’lim yuklamalarining bajarilishi hududlardagi tibbiyot muassasalarining klinik ordinator (rezident)ga rahbarlik qiladigan xodimlari tomonidan nazorat qilinsin.

**4.** Klinik ordinatura (rezidentura)ga qabul jarayoni barcha uchun teng ravishda avgust oyida amalga oshiriladi, bunda:

klinik ordinaturaga qabul qilish O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi xuzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonida bir bosqichli test sinovlari asosida amalga oshiriladi.

Markaz Sog‘likni saqlash vazirligi tomonidan navbatdagi o‘quv yili uchun tasdiqlangan davlat granti, erkin va maqsadli to‘lov-kontrakt parametrlariga muvofiq qabulni amalga oshiradi.

**5.** Klinik ordinatura (rezidentura)ga o‘qishga kirish uchun talabgorlar qabul komissiyasiga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

klinik ordinatura (rezidentura) mutaxassisligi ko‘rsatilgan holda, Markaz direktori nomiga ariza;

oliy ma’lumot to‘g‘risidagi hujjat (yoki diplomdan ko‘chirma - O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarini davlat granta bo‘yicha o‘qib tugatganlar uchun) hamda unga ilova;

086-U-shakldagi tibbiy ma’lumotnoma;

qonunchilik hujjatlariga muvofiq o‘qishga kirishda imtiyoz beruvchi hujjat.

Ko‘rsatib o‘tilgan hujjatlar mavjud bo‘lganda qabul komissiyasi abiturientning hujjatlarini qabul qilishni rad etishga xaqli emas.

**6.** Mazkur buyruq ijrosining nazorati Markaz ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha direktori o‘rinbosari I.V.Liverko zimmasiga yuklatilsin.

**Direktor v.v.b.** **I.V.Liverko**